



MUNIS LIRIKASIDA PARI OBRAZI TALQINI

Kayumova Gulsanam Abdumannop qizi

GulDU Adabiyotshunoslik yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr Xorazm adabiy muhitining yetuk vakillaridan biri Shermuhammad Munis she'riyatidagi an'anaviy obrazlardan biri bo'lgan pari obrazi o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Munis Xorazmiy, lirika, pari, yor, badiiy san'at.

O'zbek mumtoz she'riyatida lirik qahramonning ruhiy holati, ishqiy iztiroblari va ma'shuqa go'zalligini ifodalashda bir qancha an'anaviy obrazlardan foydalanib kelingan. Ana shunday obrazlardan biri bu pari obrazi hisoblanib, uning kelib chiqishi bevosita xalq mifologiyasiga borib taqaladi. Tadqiqotchi O.Qayumov pari obrazi tarixiga nazar tashlar ekan, uning genezisi O'rta Osiyoda yashagan qadimgi xalqlarning zardushtiylikdan avvalgi mifologik inonchlariga borib taqalishini hamda bu obraz haqidagi eng qadimiy ma'lumotlar "Avesto"da "payrika" atamasi sifatida keltirilganligini ta'kidlab o'tadi. Badiiy adbiyotda pari obrazi asosan ertaklarda, xalq afsonalari hamda dostonlarda uchrashi hammamizga ma'lum. Shuningdek, bu obraz she'riyatda ham qo'llanilib o'ziga xos bir qancha xususiyatlarni namoyon etadi.

Shermuhammad Munis qalamiga mansub "Munis ul-ushshoq" devoni tarkibiga kiruvchi ishqiy g'azallarini o'qir ekanmiz ko'pgina o'rinlarda pari obraziga duch kelamiz. Uning qator g'azallarida yor pariga qiyoslanib ideal go'zallik timsoli sifatida tasvirlanadi.

Chiqsa nogah ul pari burqa jamolidan olib

Kim dururkim bormag'ay o'zdin anga hayron qolib.

Ushbu baytga ko'ra, yor pariga qiyoslanib, agar o'sha pari kutilmaganda yuziga tutilgan pardani ochib chiqsa, uni ko'rgan odam hayratda o'zini yo'qotib qo'yadi. Ya'ni shoir yor go'zalligini shu darajada tasvirlayaptiki, uni ko'rgan har bir insonni o'ziga maftun etmay qo'ymaydi.

Munis ijodida pari obraziga qayta-qayta murojaat qilib har gal uning turli sifatlarini namoyon etadi. Shoir lirikasidagi pari bilan bog'liq she'rlarida nafaqat pari, balki ma'shuqaga "parivash", "pari", "pariruxsor", "parizoda", "pari-paykar" deb nisbat beruvchi baytlar ham mavjud. Shoir g'azallarini o'qir ekanmiz, ko'pgina o'rinlarda oshiq sevgilisiga "ey pari" deb murojaat etganiga guvoh bo'lamiz:

Ey pari, savdoyi ishqing tushsa har kim boshig'a,

Qilmayin qo'ymas ani sargashtai dashti junun.

Yoki:

To, ey parivash, ishqingga tushdi.

Munis asiring majnun ataldi.

Ushbu baytlarda pariga duch kelgan insonning ruhiy holati tasvirlangan bo'lib, ishq savdosi kimning boshiga tushsa ham uni junun ya'ni jinnilik sahrosida telba qilmay qo'ymaydi. Qisqa qilib aytganda, pariga yo'liqqan inson telba bo'lib aqldan ozadi. Aynan bu ham pariga xos xislatlardan biridir.



Uning bundan tashqari bevafoqlik, xushdan judo qilish, ko'rinmaslik kabi sifatlari ham mavjud. Parilarning insonlar ko'ziga ko'rinmaslik xususiyati xalqning diniy va mifologik qarashlarida ham o'z ifodasini topgan. Munis lirikasida ham parining ko'rinmaslik xususiyatini aks ettiruvchi baytlar mavjud.

Oshkora yuz ochib, xurshed yanglig' kelmasang,
Xalqdin bori pariylardek nihon kelmasmusen.

Munis lirikasida pari ayrim o'rinlarda ma'shuqa bilan qiyoslansa, ayrim o'rinlarda ma'shuqa o'zining latofati bilan paridan ustun keladi. Bu ham shoir ijodida muhim o'rin egallagan. Jumladan:

Oftobi husnidin sharmandalik topmish pari,
Bu jihatdindur bo'la olmas padidor ollida.

Baytda ifodalanishicha, yorning husni quyosh kabi yorqin bo'lib, hatto pari ham bu go'zallik oldida uyalib qoladi. Shu jihatdan ham u yorning oldida ko'rina olmaydi. Yor shu qadar go'zal tasvirlanganki, eng go'zal mavjudot hisoblangan pari ham uning oldida ojizdir.

Shoir ma'shuqa go'zalligini ko'rsatish uchun uni hur, malak, maloik kabi ruhlar olami vakillari bilan birgalikda qo'llaydi. Bundan ko'zlangan maqsad esa ma'shuqaning go'zalligini bo'rttirib ko'rsatishga qaratilgan.

Hur erursen yo pari yoxud malak bu husn ila
Yo'qsa qaysi til bila de olg'amen inson sanga.

Oshiqning tasavvuricha, yorga faqatgina parining sifatini berishning o'zi kamlik qiladi. Husnda tengsiz bo'lgan pari, hur maloiklarga xos bo'lgan sifatlarning bari mahbubada mujassamdir. Shoir yorning inson ekanligini yaxshi biladi, biroq uning husni qarshisida o'zini hayratga tushgan, aqli shoshgan kishi kabi ko'rsatib, "Seni kim deb atay?" deya so'roqqa tutadi. Ushbu bayt "tajohil-ul orif" san'ati asosiga qurilgan bo'lib shoir yorni pari va malaklarga qiyoslaydi-yu aniq qaysi biri ekanini ta'kidlamay o'zini bilmaslikka soladi. Tajohil-ul orif ("o'zini bilmaslikka solish") ma'naviy san'atlardan bo'lib, Munis ijodida uning eng go'zal namunalari uchramiz.

Xulosa qilib aytganda, Munis lirikasidagi pari obrazi an'anaviy Sharq she'riyati an'alarini davom ettirgan holda, shoirning o'ziga xos badiiy mahorati bilan boyitilgan.

Uning ijodida pari so'zi lirik qahramonning ma'shuqani tavsiflashi uchun qo'llaniladigan tashbeh, sifatlash yoki istora sifatida ifodalangan. Ba'zan esa pari ma'shuqaga nisbatan qo'llaniganda obraz sifatida namoyon bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qayumov O. Pari haqidagi xalq qarashlari va uning tarixiy asoslari. O'zbekiston yosh adabiyotshunoslarning an'anaviy ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent, 1995.
2. Munis Shermuhammad. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957.
3. Shermuhammad Munis Xorazmiy. Saylanma. – Toshkent: G'afur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
4. Rahmonov V. She'riy san'atlar. – T.: Sharq. 2020.



5. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom” and the Folk Tales. Scientific Reports of Bukhara State University, 5(81), 34-38.
6. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 4-10.
7. Mamatqulov, M. (2021). SAYYADI-GHAZAL WRITER. Bulletin of Gulistan State University, 2021(1), 46-50.
8. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. Modern Science and Research, 3(1), 1-7.
9. Kholbekovna, F. O., & Oglu, E. B. J. (2021). Development and Improvement of Cyclicity. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 12049-12054.
10. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 118-125.
11. Faizullayeva, O. H. (2022). Artistic Conditionality and Poetic Function of Signs in Lyrical Series. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 20-29.
12. Kholbekovna, F. O., & Dehqonovna, D. G. (2020). The Hero Issue In The Lyrics. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8), 3409-3413.